

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

### **“FUSULI ARBAA” QASIDALARINING ILOHIY-ISLOMIY MANBALARI**

**Gulchehra BOLTAYEVA**

*NavDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,  
filologiya fanlari nomzodi  
[boltaevagulchekhra@gmail.com](mailto:boltaevagulchekhra@gmail.com)*

**DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14803715>**

**Annotatsiya:** Sharq mumtoz adabiyotida mavjud faslnomachilik an'anasiga Alisher Navoiy ijodiy yondashdi, uni yuksak taraqqiyot pog'onasiga ko'tardi. Maqolada “Fusuli arbaa” turkumi tarkibidagi qasidalar ilohiy-islomiy va adabiy manbalar asosida o'r ganilgan.

**Kalit so'zlar:** qasida, hamd, na't, sano, me'roj, munojot.

**Аннотация:** Алишер Навои творчески подошел к традиционному описанию времён год в классической литературе Востока и поднял ее на высокий уровень развития. В статье на основе духовно-исламских и литературных источников анализируются оды, входящие в состав “Фусули арббаа”.

**Ключевые слова:** ода, хамд, наът, сано, меъројс, мунаҗсат.

**Annotation:** Alisher Navoi creatively approached the classical literature of the East and raised it to a high level of development. The article discusses odes contained in the Fusuli arbaa series based on spiritual-Islamic and literary sources.

**Key words:** qasida, hamd, na'at, sano, me'raj, munajat.

Yuksak iste'dod sohibi Alisher Navoiyga ijod zavqi va dardi, ilhom parisi Olloham taolodan yetgan. Ulug' shoir ijodida yorqin nazarga tashlanadigan jihat ham shundaki, Alisher Navoiy o'z vujudida harakatda bo'lgan ilohiy mo'jizani hamisha his etib, uning manbai – Olloha shukrona aytish, unga sig'inish, munojot qilishdan to'xtagan emas. Shundan bo'lsa kerak, shoirning kata-yu kichik deyarli barcha asarlari Olloham, uning rasuli va aziz-avliyolarni sharaflashdan boshlanadi. “Devon”laridan joy olgan turkum g'azallar, “Xamsa” dostonlari ibtidosida kelgan hamd, na't, sano, me'roj, munojot talqiniga atalgan maxsus boblar, nasriy-tarixiy asarlari tarkibida istifoda etilgan oyati karimalar fikrimizning yorqin dalilidir. Xuddi o'sha misralarsiz Alisher Navoiyning falsafiy va ilohiy qarashlarini mukammal o'r ganish aslo mumkin emas. Chunki Alisher Navoiyning zikri o'tgan sohalarga qarashlari negizini Qur'oni Karim, Muhammad alayhissalomning hadisi shariflari, xullas, islomning shar'iy sarchashmalari tashkil qiladi.

Ulug' shoir ijtimoiy-falsafiy qarashlari ifodalangan “Fusuli arbaa” qasidalar turkumini ham bevosita ilohiy-islomiy sarchashmalardan bahra olgan asar sifatida e'tirof etish mumkin. Turkum yil fasllaridan issiqlik, harorat, zaminiy ne'matlarni yetiltirish pallasi bo'lgan “Saraton” (“Yoz”) qasidasi bilan ibtido topadi. Qasidaning kirish satrlaridayoq falak, samoviy mo'jizalar, ularning xossalari va bevosita samoga

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

aloqador xurshid – quyosh, sipehr – osmon, Nohid, Zuhal, Mirrix, anjum, qatarot, gardun kabi so‘zlar qo‘llangan.

Saraton faslining nihoyatda issiqligini ta’riflar ekan, ulug‘ shoir yozadi:

*Dar ko‘zai gardun shuda xurshed chu otash,*

*Zarroti sharorast hama sho ‘lai onro [1:209].*

Gardun ko‘zasida xurshid – quyosh olovdek (yonib), undan sachraydigan shu'lalar alanga zarralarini – uchqunlarini eslatadi.

Butun borliqda – tabiatdagi eng mayda jonzotdan tortib, bahaybat mavjudotning shakl-u shamoyili, amaliyotida Ollohnning qudrati bor. Tun-kun, quyosh-oy, sayyoralar va yulduzlar Ollohnning amriga itoat etib, harakat qiladilar. Zero, yaratmoq va amr etmoq Uning O‘zigagina xosdir. Islomiy ta’limot, uning muqaddas ilohiy Kitobida mazkur haqiqat qayta-qayta ta’kidlanadi. Ana o’sha ilohiy nur “Fusuli arbaa” qasidalari baytlariga ham chuqur singdirilgan. Shu jihatdan Qur’oni karim “Yunus” surasining 3 va 5-oyati karimalari ahamiyatli. “Albatta, Parvardigoringiz osmonlar va yerni olti kunda yaratib, so‘ngra O‘z arshini egallagan Ollohdir... U (Ollo) quyoshni ziyo sochguvchi, oyni yorug‘lik qilgan va siz qilgan va sizlar yillarning sanog‘ini hamda vaqtlearning hisobini bilishlarining uchun uni (ya’ni oyni bir qancha) manzil burjlarga bo‘lib qo‘yan zotdir. Hech shak-shubhasiz, Ollo bu (borliqni) haq (Qonun va maqsad) bilan yaratdi...” [2:136-137].

“Fusuli arbaa”da yil fasllari, ular bilan bog‘liq tabiiy o‘zgarishlar, fasllarning majoziy-botiniy ma’nolarini yuzaga chiqarishda Alisher Navoiy “Qur’on”ning samo yoxud ilmi nujumga daxldor “Ra’d”, “Nur”, “Va-n-najm”, “Qamar”, “Buruj”, “Vash-shams” suralaridan ozuqa – ilhom olganligi shak-shubhasizdir.

Qasidalarning katta qismini tashkil qiluvchi Husayn Boyqaro madhi va uning jang-u jadallardagi zafar-u mahorati, sha’n-shavkati ta’rifini keltirgan Alisher Navoiy baytlari mazmun-mohiyatini ulug‘ shoirning o‘zi darajasida his qilmoq uchun ilohiy-islomiy manbalarni chuqur tahlil qilish zakovatiga ega bo‘lmoq lozimdir. “Tavba” surasining 36-oyati karimasida shunday marhamat qilinadi: “Albatta, Ollohnning nazdida oylarning sanog‘i Ollo osmonlar va yerni yaratgan kunida belgilab qo‘yanidek, 12 oydir. Ulardan to‘rti urush harom qilingan (oylar)dir... Bas, u oylarda (urushni halol deb jangga kirib) o‘zlaringizga zulm qilmangiz...” [2:126-127]

Oyati karimada ta’kidlangan urush harom qilingan oylar: Zulqa’da, Zul-hijja, Muharram va Rajab oylari bo‘lib, ulardan avvalgi uchtasi ketma-ket kelsa, Rajab oyi oradan besh oy o‘tganidan keyin chiqadi. Zikri o‘tgan fikrlar Alisher Navoiy badiiy-ilohiy dunyoqarashining asosini tashkil qiladi, desak o‘rinli xulosa yuzaga chiqadi. Masalaning yana bir nozik tomoni shundaki, bosh sarchashma – manbadan uzilgan holda “Fusuli arbaa” misralari mag‘zini butun barkamolligi bilan his qilish ancha

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

mushkul. Tubsiz ma’naviy ummonga teng shoir misralari doimo ikki qutb o’rtasidagi “jang”ni o‘zida mujassamlashtirgan. “Fusuli arbaa”ning dilbar qasidalaridan “Bahor” tarkibidagi quyidagi, bir-birini mazmun jihatdan taqozo qiluvchi ikki baytga e’tiborni qaratishni lozim deb bilamiz:

*Bahori umrro didan, ki chun raftu xazon omad,  
Xazon ham bigzarak to bingary in kohi vayronro [1:217].*

Umr bahorini ko‘ryapsan-ku, o‘tib ketdi-yu xazoni keldi, bu vayrona imorat (charx)ni ko‘raman deguncha, Xazon ham o‘tib ketguvsidir.

Darvoqe, umr oqar daryoni eslatadi. Hatto durustroq mulohaza qilishga ulgurmay, o‘tadi, ketadi... Inson uchun ajratilgan bu davr qisqa, ammo g‘oyat murakkab va katta imtihonlarga dosh berishga to‘g‘ri keladi. Hayot atalmish ulkan ummonning chig‘iriqlari behad ko‘p. Kimdir ularga yuzma-yuz boradi, zarbalariga chidab, halollikka dog‘ tushirmaydi. Boshqalar esa chap berib yashaydi. O‘z nafsi, istak va irodasi oldida hech kim va hech nimani qadrlamaydi. Aysh-ishrat, mol-dunyo, shuhrat-lavozim ilinjida kunlar, oylar, yillar, qarabsizki, umr o‘tib ketadi. Yuqorida keltirilgan ikki baytda ayni shu o‘tkinchi dunyoga ishora qilinadi.

Bahor go‘zalliklariga oshufta bo‘lib, undan bahra olishga ulgurmay, Xazonga yetib ketamiz. Aylanuvchi charxning shu holatni takrorlashdan boshqa ishi yo‘q! Ammo inson ogoh bo‘lishi darkor. Umrining har bir soatini maqsadli o‘tkazishi, Olloh yo‘lida barcha ranj-u mashaqqatlarga chidab, foniy dunyodagi har bir kunini savobli ishlarga sarflashi lozim. “Xazon” qasidasidagi quyidagi baytda esa Alisher Navoiy Ollohnning yaratuvchilik sifatiga urg‘u beradi:

*Dar avroqi razon naqqoshi sun az xomai hikmat,  
Ba ro ‘i zarvaraq az rangi la ‘li rextafshonro [1:215].*

Zarvaraq tok barglari yuziga Azal naqqoshi hikmat qalami bilan la’l rangida zeb-u ziynat berdi.

Baytda dunyo va borliqdagi barcha narsalarning bunyodkori Olloh ekanligi ta’kidlanadi. Xazon – Kuz ham Naqqoshi Sun’ – Yaratuvchining hikmat qalami bilan shu qadar tarovat va go‘zallik kasb etadi. Tabiat badanida garchi yubs – quruqlik – so‘lish ustun bo‘lsa-da, Olloh karomati bilan o‘sha sariqlik – za’faronlik ham tok va dov-daraxtlarning barglariga xush yarashgan. Har bir bargda Ollohnning hikmat qalami o‘z muhrini bosgan. Shundan, Yaratuvchidagi go‘zallik nuri tabiat qo‘ynidagi barcha jonli-jonsiz narsalarda zohir bo‘lishi muqarrar.

“Fusuli arbaa” turkumida tabiatning bag‘ri keng, boyliklari behadligi ta’kidlanadi. Borliqdagi o‘zgarishlar – fasllardagi turli-tuman hodisotlarni tasvirlashdan maqsad – Parvardigoring hamma jabhada tengsiz, yakka-yu yagona,

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

oliy Yaratuvchiliginin ta'kidlashdir. Shu jihatdan “Xazon” qasidasining yakunlovchi bayti ahamiyatli:

*Agarchi nest on mavsum, ki az gulho shavad gulshan,  
Chi suratxonai Moniy zuhuri Sun'i Yazdonro [1:216].*

Garchi gullardan gulshan yasash mavsumi emas, biroq Ollohol qudratining jilvasi oldida Moniy suratxonasi nima bo'libdi?

She'riy parchaning Qur'oni karimdan oziqlangani ayon. Fikrimizga qanoat hosil qilish uchun ilohiy Kitobning Hadid surasi 4-5-oyati karimalarini nazardan o'tkazish kifoyadir. “U osmonlar va yerni olti kunda yaratib, so'ngra O'z arshiga o'rashgan zotdir. U yerga kiradigan (yomg'ir, qor suvi, xazina-yu dafina va jasadlar kabi) narsalarni ham, undan chiqadigan (o't-o'lan, nabotot va buloq suvlari kabi) narsalarni ham, samodan tushadigan (rizq-u nasiba, xayr-u baraka kabi) narsalarni ham, bilur. Sizlar qayerda bo'lsangizlar, U sizlar bilan birgadir... Osmonlar va yer uning mulkidir. Barcha ishlar yolg'iz Olloholga qaytarilur ” [2:526].

Agar Ollohol istasa, marhamat ko'rsatsa, hatto Xazonda ham gulshan barpo etish mumkin. Eng mohir rassom Moniy ham bunday go'zal manzara yaratolmaydi. Dahrdagi har bir zarraning o'ziyoq Olloholning buyuk naqqoshligidan dalolatdir. Aslida eng buyuk musavvir – Parvardigordir.

Ko'rindiki, “Fusuli arbaa” misralaridagi g'oyalalar va oyati karimalardagi mohiyat bir-biriga to'kis hamohangdir. Alisher Navoiy tafakkurida ustuvor o'rashgan Qur'on ta'limoti, yuksak insonparvarlik g'oyalari ulug' shoir asariga hayotbaxsh ruh hadya etib turibdi. Zero, ilohiyot va ilohiy olam qudratiga umid bog'lab, unga sig'inib yashagan ulug' shoir Alisher Navoiy Qur'oni karim oyatlarini asarlari mag'ziga singdirish bilan barcha mavjudotlardan oliy qilib yaratilgan va “sharaf toji kiydirilgan” Hazrati insonni, uning dardi, tashvishi, ruhiyati va ma'naviyatini kuylashni hamma narsadan ustun qo'yadi. Insonni ulug' Yaratuvchi qudratidan ogoh qilib turadi...

### **Adabiyotlar ro'yxati**

**(Использованная литература/ References)**

1. Fonyi Amir Alisher. Devoni forsiy (muntaxab). – Dushanbe: Irfon, 1993. – 320 b.
2. Qur'oni karim (tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur). –Toshkent: Cho'lpon, 1992. – 672 b.